

7- dars. SOVUN PUFAKHALARI RASMINI CHIZISH

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarga ranglar va ularning aralashmasi haqida tushuncha berish;
- akvarel bo'yoqlarida ranglaming bir biri bilan aralashtirish orqali yangi rang yaratish ko'nikmasini shakllantirish;
- ranglaming bir biriga o'tish jozibasini ko'ra olish va kompozitsiya yaratishni o'rganish.

Kerakli materiallar: darslik, gadjet, akvarel bo'yoqlari, mo'yqalamlar, A4 o'lchamli qog'oz, suv idishi, gubka.

DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

2. Kirish qismi (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilarni juftliklarga bo'lib, kamalak ranglari harflariga oid so'z topish (akrostix) bo'yicha musobaqa o'tkazadilar. G'olib bo'lgan o'quvchi dars mavzusini e'lon qiladi.

3. Amaliy ish (25 minut)

O'qituvchi savollar beradi:

1. Hammangiz Sovun pufaklarini ko'rganmisiz?

2. Ular qanday ko'rindagi?

To'g'ri, quyosh yorug'ida turli ranglarda tovlanadi.

Bugun akvarel bo'yoqlari bilan pufaklarni chizamiz.

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda ijodiy amaliy mashg'ulotga kirishadilar:

1. Qog'oz suv bilan namlanadi. Ortiqcha suv gubka bilan artib tashlanadi.

2. Akvarel bo'yoqlarning turli ranglari tanlanadi.

3. Turli xil diametrtdagi doiralar turli ranglar bilan chiziladi.

4. Asosiy rangga ikkinchi va uchinchi ranglarni qo'shib, rang tuslarini hosil qilib chiziladi.

5. Hajm yaratish uchun asosiy rang bilan to'qlashtiriladi. Pufakchalar yorug' qismlari ochiq qoladi.

6. Tasvir qurigandan so'ng, pufakchalar chegarasi chizib chiqiladi.

4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)

O'qituvchi savollar beradi:

1. Sizga pufakchalarni chizish yoqdimi?
2. Eng qiziq narsa nima bo'ldi? Eng qiyinichi?

O'quvchilarga chizgan ishlarini baholash taklif qilinadi. Agar ishlagan tasvirlari o'zlariga yoqqan bo'lsa, rasmlarni baland ko'tarib ko'rsatishlari, agar yoqmagan bo'lsa, qo'llarida ushlab turishlari kerak bo'ladi

Kutilayotgan natijalar:

- Tasviriy san'atda usullarining kengligi va xilma-xilligini anglab yetadilar;
- akvarel bo'yoqlaridan foydalanib rang o'tishlarini yaratishni o'rganadilar.

8 - dars. SABZAVOTLAR

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda kuzda yig'iladigan hosil haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- akvarel bo'yoqlari bilan rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirish;
- bo'yoqlarni qo'llash orqali an'anaviy kompozitsiya yaratish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar:

darslik, gadjet, akvarel bo'yoqlari, A4 qog'oz, mo'yqalam, suv idishi, gubka.

DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

2. Kirish qismi (5 minut)

Avvalgi dars bo'yicha savollar beriladi va dars mavzusi e'lon qilinadi.

1. Sizga o'tgan darsdagi bo'yoqlardan turli rang tuslarini hosil qilish yoqdimi?
2. Chizgan rasmlaringizni yaqinlaringizga ko'rsatdingizmi? Ularning taassurotlari qanday bo'ldi?